

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“O‘zbekiston va jahon xalqlarining madaniy hamkorlik istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldaggi PQ-200-son qarori 9-bandi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlangan rejaga muvofiq, **2025-yilning 15-may kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida “O‘zbekiston va jahon xalqlarining madaniy hamkorlik istiqbollari”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani o‘tkaziladi.

Anjuman quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etiladi:

1. Xoreografiya san’ati:

- xoreografiya ta’limida xalqaro hamkorlikning ahamiyati;
- balet san’ati sohasidagi ijodiy izlanishlar;
- raqs san’atidagi yangi ijodiy loyihalar va jarayonlar;
- milliy raqs san’ati va etnografiya; folklor raqslari.

2. San’at nazariyasi va tarixi:

- San’at sohasidagi halqaro ijodiy loyihalar;
- O‘zbekiston san’ati tarixining o‘rganilmagan sahifalari;
- san’atshunoslik sohasida xalqaro hamkorlik aloqalari;
- milliy san’at va qadriyatlar integratsiyasi.

3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar:

- pedagogik texnologiyalar sohasidagi xalqaro tajribalar;
- globallashuv sharoitida xalqaro madaniy aloqalarning rivojlanishi;
- madaniy-gumanitar hamkorlikning dolzarb masalalari;
- milliy meros va umumbashariy qadriyatlar.

Mualliflar uchun ma’lumotlar

Anjumanda respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim tashkilotlari professor-o‘qituvchilari, ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlari, doktorantlar, tadqiqotchilar hamda madaniyat va san’at sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar ishtirok etishlari mumkin.

Anjumanning rasmiy tili: o‘zbek, rus va ingliz.

Ilmiy maqolalar quyidagi talablar asosida rasmiylashtirilishi lozim:

✓ maqola matni Microsoft Word matn muharriri yordamida Times New Roman shriftida, 1,5 intervalda, 14 o‘lchamda terilgan bo‘lib, yuqorida va pastdan 2 sm., chapdan 3 sm., o‘ngdan 1,5 sm. joy qoldirib rasmiylashtiriladi.

Maqolaning nomi bosh harflar bilan yoziladi va 1,5 intervaldan so‘ng muallifning F.I.SH., mamlakat nomi, asosiy ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni keltiriladi;

- ✓ maqolaning sarlavha qismidan keyin bir qator tashlab, annotatsiya va kalit so‘zlar o‘zbek, rus va ingliz tillarida keltiriladi;
- ✓ matnda havolalar to‘rtburchak qavs ichida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidagi tartib raqami bilan beriladi (Masalan: [1, 36-b.]). Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati matn so‘ngida beriladi. Foydalanilgan adabiyotlar kamida 4-5 ta nomdagi adabiyotni tashkil etishi tavsiya etiladi;
- ✓ talabga javob bermaydigan maqolalar chop etilmaydi va qo‘lyozmasi muallifga qaytarilmaydi;
- ✓ muallif taqdim etilgan maqolaning ilmiy-nazariy, amaliy va metodologik jihatdan asoslanganligi, maqolada keltiriladigan raqamlar, ma’lumot va dalillarning aniqligi, to‘g‘riligi hamda plagiatga yo‘l qo‘yilmaganligiga mas’uldir;
- ✓ maqola hajmi 5-7 bet, elektron variantda **2025-yil 1-martga qadar** tahrirdan o‘tkazilib, tashkiliy qo‘mitaning diana.abdulova@mail.ru elektron manziliga yoki **+99893 512-45-95 telegramm raqamiga yuborilishi lozim;**
- ✓ ko‘rsatilgan muddatdan kechikib taqdim etilgan maqolalar ko‘rib chiqilmaydi va to‘plamga kiritilmaydi.

Koordinator: Abdulova Diana Ulfatovna: **+99893 512-45-95**

Tashkiliy qo‘mita